

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

Boshlang'ich ta'lim uslubiyati kafedrası

Kurs ishi

**Mavzu: Boshlang'ich sinf darslarini tashkil etishda
pedagogik hamkorlik**

**Bajardi: 24-11 guruh talabasi
Turanova Iroda**

Guliston – 2015- yil.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov tashabbusi asosida sog'lom avlodni tarbiyalashga, ma'naviy yetuk, axloqan pok, intellektual qobiliyati kuchli, bilimdon jismonan baquvvat, har tomonlama kamol topgan shaxsni ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli tadbirlarni amalga oshirilmogda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil "Barkamol avlod yili" deb e'lon qilinishi shular jumlasidandir.

Yangi yilga aynan shunday javob berishining sabablarini isbotlab berish, o'ylaymizki, qiyin emas.

"Barkamol avlod yili" davlat dasturida "Mamlakatimiz sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarni o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, mamlakatimiz yigit qizlarini XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart – sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli qaniq yo'naltirilgan chora tadbirlarni amalga oshirish" asosiy maqsad qilib belgilangan.

Taraqqiyotning omili ma'naviyatli xalq, ma'naviyatli millat, ma'naviyatli shaxs, ma'naviy yetuk inson qo'lida bo'lishi lozimligi bugungi hayot tarsi va uning rivoji ko'rsatib turibdi. "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish" bosh g'oyamiz hisoblanib, bu g'oyani ma'naviy yetuk, barkamol insonlarga amalga oshiradi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasini ma'vaviy jihatdan rivojlantirish amalga oshirilayotgan hozirgi sharoitda sodir bo'layotgan tub islohatlarni bozor iqtisodiyotiga o'tish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Mustaqillik sharofati bilan ta'lim tizimida katta o'zganishlar sodir bo'ldi. Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida jumladan boshlang'ich sinflarda o'quv tarbiya jarayonini samarali tashkil etish dars turlaridan unumli foydalanish yangicha pedagogik va axborat texnologiyalari o'qitishning interfaol usullarini o'zlashtirish va amaliyotga tadbiiq etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan bo'lib turibdi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan kelib chiqqan holda ta'limni tashkil etishning zamonaviy shakl va usullari dars turlari ulardan samarali foydalanish oila va maktab hamkorligi muommolari ustida bir qancha kurs ishilar ish olib bormoqdalar. Sharq xalqlari taraqqiyotida yoshlarga bilim berish, ularni halol mehnat qilishga da'vat qilish, turli davralarda yashagan donishmandlarni asarlarda va boshqa turli manbalarda keng bayon etilgan. Al Xorazmiy, Al Farg'oniy, Al Marg'iloniy, Abu Nosir Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ko'plab donishmand

mutafakkirlar asarlarida ham yoshlarning odobi, ahloqi hamda bilim va ko'nikmalarini shakllantirish to'g'risida qimmatli fikr-muloxazalar bildirilgan.

Kurs ishining maqsadi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darslarini tashkil etishda pedagogik hamkorlikni asoslab berishdan iborat.

Kurs ishi ob'ekti: O'quvchilarning darslarini tashkil etishda pedagogik hamkorlikni asoslab tashkil qilish jarayoni.

Kurs ishi predmeti: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darslarini tashkil qilish jarayonida vositalari, shakllari, metodlari.

Kurs ishi vazifalari: 1- Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darslarini tashkil qilish jarayonida pedagogik hamkorlikni tashkil qilishning mavjud holatini o'rganish.

2- Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darslarini tashkil qilishda pedagogik hamkorlikni tashkil qilish jarayonining takomillashtirish usullarini aniqlash.

3- Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darslarini tashkil qilishda pedagogik hamkorlikni tashkil qilish jarayonining takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqish.

Kurs ishi metodlari: mavzuga oid adabiyotlarni o'rganish, tahlil etish hamda umumlashtirish.

I BOB. BOSHLANG'ICH SINIF DARSALARINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Boshlang'ich sinf darslarini tashkil etishda pedagogik hamkorlikning mazmuni.

Maktab oldidagi ma'suliyotni chuqur anglaydigan ahloqan pok, jismonan baquvvat, vatanga fidoyi, izlanuvchan, tashabbuskor sog'lom avlodni shakllantirish ta'lim jarayoninig bosh maqsadlaridan biridir. Ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov tomonidan 2005 yilning "Sihat salomatlik yili" deb e'lon qilinishi ushbu muommoning ilmiy yechimini taminlash borasida izlanishlarini olib borish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi" qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" mazmunida ham barkamol shaxs va malakali mutahassislarni tarbiyalab yetishtirishning milliy modeli hamda uning mohiyati keng yoritib berilgan. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" : "Uzluksiz ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy marifiy, huquqiy iqtisodiy ekologik tarbiyasini takomillashtirish nazarda tutadi" deb e'tiqodli yoshlarni tarbiyalashga bo'lgan e'tiborini har qachongidan ham kuchaytirish zarurligini uqtirib o'tadi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 2000 yil 15 fevralda "Sog'lom avlod" va 2001 yil 5 fevralda "Ona va bola" davlat dasturlarining qabul qilinganligi, shu nomdagi orden

hamda “Sog’lom avlod uchun” Xalqaro xayriya jamg’armasining ta’ sis etilishi. O’zbekistonda vujudga kelgan demokratik jarayonlar va sog’lom turmush vaziyatning o’ziga xosligi bilan tavsiflanadi. Maktabning tarixan rivojlanishi davrida ta’limning tashkil etish shakllari turlicha bo’lgan.

Ta’limning tashkil etish shakllari ma’lim ijtimoiy tuzum va shu tuzumning manfaatlariga xos holda shakllangan.

XVI asrning oxiri XVII asrning boshlarida buyuk chex pedagogi Y.A.Komenskiy (1592-1670) tarixida birinchi bo’lib maktab ta’limida sinf-dars tizimini yaratadi. Uning ta’limni tashkil qilish haqidagi qarashlari bir qator jiddiy qarshiliklarga uchragan bo’lsa ham g’arb mamlakatlariga juda tez tarqalgan va ta’limni tashkil qilishning birdan bir shakli deb e’tirof etildi. O’zbek maktablari oktabr to’ntarilishidan keyin sinf dars tizimiga o’tdi. Davlat tomonidan 1932 yil 25 avgustda “Boshlang’ich va o’rta maktabning o’quv dasturlari va rejimi to’g’risida” qaror qabul qilindi. Bu qarorda “Boshlang’ich va o’rta maktabda o’quv ishini uyushtirishning asosiy shakli ma’lum guruh o’quvchilari nilan qat’iy mashg’ulot jadvaliga muvofiq dars olib borish lozim; bunda bir guruh o’quvchilar sostavi sira o’zgarmasligi kerak, o’quv ishining bu shakli o’qituvchining rahbarligi ostida, butun guruhni birlashtirib ishlashi, brigadalarga bo’linib ishlash va har bir o’quvchining individual ishlashni o’z ichiga olishi; o’qitishning xilma-xil usullarini qo’llanishi kerak deb ko’rsatib qo’yiladi.

Endilikda mustaqil jumhuruyatimiz xalq ta’limi oldiga qo’ygan talab va ehtiyojlardan kelib chiqqan holda maktab ta’limini tashkil qilishning yangi shakllari yaratilmoqda.

Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda sinf yoshi va bilimi jihatdan bir xil bo’lgan ma’lum miqdordagi o’quvchilar guruhidir. Pedagogik adabiyotlarda dars deb bevosita o’qituvchining rahbarligida muayyan o’quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim mashg’ulotiga aytiladi; deb takidlaydi?

Dars-o’quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli, o’quv ishlarining markaziy qismidir. Maktablarimiz bosib o’tgan tarixiy davr ichida ta’limni tashkil qilish shakllari o’zgaradi, rivojlanadi. Hozir maktablarimizda qo’llanayotgan sinf dars tizimi quyidagi tashkiliy shakllarda olib boriladi.

1. Har qaysi sinf yoshi va bilimiga ko’ra bir xil darajadagi bolalarning doimiy guruhga ega bo’ladi.
2. Dars mashg’uloti asosan 45 daqiqaga mo’ljallangan bo’lib, qat’iy jadval asosida olib boriladi.
3. Dars bevosita o’qituvchining rahbarligida jamoa va yakka shakilda olib boriladi.
4. Dars o’tilayotgan materialning mazmuniga qarab xilma xil usul bilan olib boriladi, ta’lim tizimining bir qismi sifatida, albatta, tugallangan bilim beriladi va navbatdagi bilimlarni o’zlashtirish uchun zamin yaratadigan qilib uyushtiriladi.

Ayni paytda maktablarimizda talimni tashkil etish shakllari ikki turda olib borilmoqda

1. sinf – dars shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar.

2. Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar.

Sinf dars shaklida olib boriladigan mashg'ulot o'qtuvchining kundalik o'quv materialini tizimli bayon qilib berishini, xilma xil usullardan foydalanishi, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini izchillik bilan hisobga olib borishni, o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatishni o'z ichiga oladi. Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar sinf sharoitidan tashqarida, o'quv ustaxonasi tajriba maydonchalari va qishloq xo'jaligi ekin maydonlarida ishlash, sayoxatlar o'kazish yo'li bilan olib boriladi. Hozirgi zamon didaktikasi ko'p yillar davomida to'plangan o'qitish qoidalari, fan yutuqlari va ilg'or tajribalar asosida boyib bormoqda deyishga asos bor.

1.2. Boshlang'ich sinf darslarini tashkil etishda pedagogik hamkorlikning tuzilishi.

Boshlang'ich sinf darslarini tashkil etishda pedagogik hamkorlikning mazmunini umumiy o'rta ta'lim maktablarida darsni tashkil etishning bir necha turlaridan foydalanildi. Ammo, ularning har birini tuzilishi o'ziga xos bo'lib, bir-biridan farq qiladi. Ularning tuzilishi asosan darsdan ko'zlangan maqsadga bog'liq. Ta'limiy maqsad va vazifalar esa dars turning nomlanishidan ko'rinib turibdi. Masalan: yangi mavzuni bayon qilish mustahkamlash, takroriy umumlashtiruvchi, aralash, nazorat dars turlari. Ular bosqichma bosqich bir-birini to'ldirib boradi. Ya'ni, dastlab yangi mavzu haqida bilim beriladi, keyingi darsda o'quvchilar bilimlari amaliy ko'nima va malakalar bilan mustahkamlanadi. Navbatdagi dars turida egallagab bilim va ko'nikmalar takroriy umumlashtiriladi. Aralash dars turida o'quvchilar turli faoliyatlar bilan shug'ullanadilar, nazorat darsida esa o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikmalar tekshiriladi va baholanadi. Boshlang'ich sinf darslarini tashkil etishda pedagogik hamkorlikning mazmunini boshlang'ich sinflarda takroriy umumlashtiruvchi dars turining tuzilishi quyidagicha:

1. Darsning tashkiliy qismi
2. darsning maqsad va vazifalarini belgilab olish.
3. O'quv materiallarini umumlashtirish va tizimlashtirish.
4. Dars yakuni va uyga vazifa.

Boshlang'ich sinf darslarini tashkil etishda pedagogik hamkorlikning mazmunini bu dars turini tashkil etishning o'ziga xos va murakkablik jihati shundaki, unda o'quv materiallarning chegaralari aniq belgilab olinishi, asosiy g'oya, tushuncha, qoida, unga mos mashq topshiriqlarini ajratib olish lozim. Masalan: darsda nutqning ega, kesim, ikkinchi darajali bo'laklari qaytariladi. Vaqtning chegaralanganligi sababli ularning har biri ustida to'xtalib

bo'lmaydi. Shuning uchun ham tanlangan mashq va topshiriqlarda nutqning tarkibiy qismlari o'zaro aloqador shaklida bo'lmog'i lozim.

Qaytarish jarayonida darsning tarbiyaviy jihatiga e'tibor kuchaytiriladi. Bunda o'quv materiallari ko'proq qiziqarli hodisa, voqea dalillar bilan bog'liq bo'ladi. Boshlang'ich sinf darslarini tashkil etishda pedagogik hamkorlikning mazmunini tizimlashtirish va umumlashtirish darsining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, o'qituvchining o'zi qamrab tushuntirib, aksincha o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqaradi. Boshlang'ich sinflarda o'quv materiallarini tizimlashtirish asosan amaliy o'quv faoliyatida amalgam oshiriladi. Yuqori sinflarda esa e'tibor nazariy tahlilga qaratiladi. Bu esa o'quvchilar tomonidan umumlashtiruvchi xulosalar chiqarishga va mabtiqiy to'g'ri fikrlash qobiliyatlarining rivojlanishiga olib keladi.

Ma'lumki, har bir o'quv predmeti, undagi materiallar boblarga, qismlarga, bo'laklarga alohida mavzularga bo'lib o'rganiladi. Umumlashtiruvchi darslar esa tarkibiy qismlarga bo'lib, o'rganilgan materiallarni umumlashtirishga, ular o'rtasidagi aloqadorlikni, yaxlitlikni anglab yetishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda har bir fan o'ziga xos tarbiyaviy qismlardan iborat bo'lganligi sababli umumlashtiruvchi darslar o'quv yili, choraklarining turi bosqichlari davriga to'g'ri keladi. Asosan o'quv predmetining ma'lum bir qismi, bobi o'tib bo'lingan davrda choraklar, o'quv yili yakuniy davrlarida ko'proq qo'llaniladi. Umumlashtiruvchi darslarni tashkil etishda pedagogik hamkorlik natijasida o'quvchilar umumlashgan holdagi tasavvurga ega bo'ladilar. Tushuncha va kategoriyalar o'rtasidagi aloqadorliklari anglab yetadilar, bilimlarini tartibga tizimga soladilar. Ularda idrok, tasavvur, mantiqiy tafakur rivojlanadi, dunyoqarashi kengayadi, murakkab topshiriqlarni bajara olish ko'nikmalari tarkib topadi. Boshlang'ich sinf darslarini tashkil etishda pedagogik hamkorlikni turini to'g'ri tashkil etishning maqsad va vazifalarini chuqur tushungan holda didaktik qoidalarga rioya qilishi lozim. U eng avvalo darsning asosiy vazifalariga rioya qilishi lozim.

Ta'lim jarayoning ta'limiy tarbiyaviy va rivojlantiruvchi 3 ta asosiy vazifalari bo'lib, har bir darsda ta'limning ushbu funksiyalari amalga oshirilishi shart xisoblanadi.

Darsning ta'limiy tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarining turlari, shuningdek ularni amalga oshirish usullarini izlash boshlang'ich ta'lim metodikasi va amaliyotning takomillashuviga yordam beradi. O'qituvchining o'qitish jarayonida ta'lim tarbiya va rivojlantiruvchi funksiyalarini amalga oshirish yo'llarini bilish, ijodkorlik va pedagogik mahoratni talab qiladi. Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi asosida o'quvchilarni tegishli bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish ta'limiy vazifadir.

Boshlang'ich sinflarda darslarni tashkil etishda pedagogik hamkorlikning mazmunini har bir darsda ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalar u yoki bu darajada amalga oshirishga

qaratilsa u o'qituvchining bilish faoliyatida asosiy o'rinni egallaydi. Bunday holda o'qitishning boshqa vazifalari hamda ularga muvofiq topshiriqlar mazkur darsdagi o'qub jarayoning yordamchi komponenti xisoblanadi.

II BOB BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNING SHART-SHAROITLARI.

1.1. Darslarni tashkil etishda pedagogik hamkorlikning mazmuni.

Oila va maktab oldidagi masuliyatini chuqur anglaydigan ahloqan pok, jismonan baquvvat, Vatanga fidoiy, izlanuvchan, tashabbuskor sog'lom avlodni shakllantirish ta'lim jarayoning bosh maqsadlaridan biridir. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov tomonidan 2005 yilning "Sihat salomatlik yili" deb e'lon qilinishi ushbu muommoning ilmiy yechimini taminlash borasida izlanishlarini olib boorish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi" qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" mazmunida ham barkamol shaxs va malakali mutahassislarni tarbiyalab yetishtirishning milliy modeli hamda uning mohiyati keng yoritib berilgan. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi": "Uzluksiz ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy marifiy, huquqiy iqtisodiy ekologik tarbiyasini takomillashtirish nazarda tutadi" deb etiqodli yoshlarni tarbiyalashga bo'lgan e'tiborini har qachongidan ham kuchaytirish zarurligini uqtirib o'tadi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 2000 yil 15 fevral da "Sog'lom avlod" va 2001 yil 5 fevralda "Ona va bola" davlat dasturlarining qabul qilinganligi, shu nomdagi orden hamda "Sog'lom avlod uchun" Xalqaro xayriya jamg'armasining ta'sis etilishi. O'zbekistonda vujudga kelgan demokratik jarayonlar va sog'lom turmush vaziyatning o'ziga xosligi bilan tavsiflanadi. Boshlang'ich sinf darslarini tashkil etishda pedagogik hamkorlikning mazmunini ota onalarga pedagogik bilim berishni amalga oshirishda faqat bilim berib qolmasdan ularning tarbiya sohasidagi amaliy malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ularning pedagogic faoliyatini uyg'otish mustaqil shug'ullanishga o'rgatish, maqsadga muvofiq, oila ichki munosabatlarini yo'lga qo'yish g'oyat muhimdir. Ota onalar yig'ilishlari ota onalar bilan ish olib borishning an'anaviy tarkib topgan shaklidir. Hal qilinayotgan aniq vazifalarga bog'liq holda sinf yig'ilishlarini mavzuga doir yig'ilish bahs, amaliy yig'ilish, ota onalarning umumiy ta'limi bo'yicha sinf rejasiga ko'ra yig'ilishlar tashkil etadi. Tashkiliy yig'ilishlarda ota onalar qo'mitasi siylanadi, ish rejasi tasdiqlanadi. Maktab atrofidagi pedagogik muhit o'rnatish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqadi, jamoa topshiriqlari taqsimlanadi va turli ish yo'nalishlarga doir tashabbuskor ota onalar guruhlarini tuziladi, ota onalar ishtirokida umummaktab tadbirlarini o'tkazish rejasi muvofiqlashtiradi. Boshlang'ich sinf darslarini tashkil etishda pedagogik hamkorlikning mazmunini chorakdagi yakunlovchi sinf majlislarida ota onalarning e'tiborini o'quvchilarning bilimiga doir qiziqishlariga ularning qobiliyatiga ahloqiy, irodaviy fazilatlarini

rivojlantirishdagi yutuqlariga, kamchiliklar foydalaniladigan imkoniyatlarga qaratish maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinf darslarini tashkil etishda pedagogik hamkorlikning mazmuniga bag'ishlangan yig'ilishlar tarbiyaning eng dolzarb muomolari yuzasidan o'tkaziladi. Ularda ota onalar qo'mitasi va sinf rahbarining u yoki bu sohadagi tarbiyalanganlik darajasi to'g'risida to'plangan materiallardan foydalaniladi.

Ota onalar sinfdagi umumiy ta'limiy rejasiga ko'ra majlislar avvaldan belgilangan reja muayyan tizimga muvofiq ota onalarga pedagogik bilim berishning shakli hisoblanadi. Pedagogik harakatlar sistemasi ishlab chiqish ota onalarning tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishlarini va tarbiyasi qiyin bolalar xulqining tuzatish va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarda vujudga keladigan kelishmovchiliklarni hal etish kabi keng ko'lamdagi ta'lim tarbiyasining vazifalari xal qilinadi.

1.2. Tajriba sinov ishlaridan namunalari.

Mamlakatimizda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" gi qonunda o'qitish jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni keng ko'lamda tadbiq etib, dars samaradorligini oshirish barcha turdagi ta'lim muassasalari oldindagi eng dolzarb vazifalardan ekanligi alohida ta'kidlanadi. Shundan kelib chiqib, har bir o'qituvchi o'qitishning ilg'or samarali usullarini izlashi yoxud an'anaviy usullaridan ijodiy foydalanishi kerakdir. Ma'lumki boshlang'ich sinf o'quvchilarining darslarini tashkil etishda pedagogik hamkorlikning mazmuni darslar o'z mazmuni maqsad va vazifalari bilan odatdagi darslardan farq qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining samaradorligini oshirish "Odobnoma" fani yuzasidan namuna keltiramiz.

Mavzu: Hadislar va ota onalarga xurmat xissi

Darsning maqsadi: O'quvchilarning: "Qur'on" va "Hadis" haqidagi bilimlarini boyitish, ularni insonparvarlik, mehribonlik, ota onaga xurmatda bo'lish kabi ezgu eazilatlar ruhida tarbiyalashga xilof ish tutmaslikni uqtirish.

Darsning jihozlanishi: Qur'oni karim Hadisu sharif kitoblari, axloq tarbiyaga oid manbalar, savol javob uchun tayyorlangan tarqatma materillar, ko'rgazmali qurol.

Mavzuning qisqacha bayoni:

Hadis nima? Imom al-Buxoriy kim? Uning nomi nima uchun dunyoga mashhur?

O'qituvchi mavzuning bayonomasida avvalo shu savollarga javob berishi kerak. Hadis so'zi arabchada "habar", "rivoyat" kabi ma'nolarni ifodalaydi. Islom sharoitida Qur'oni karimdan keyin turadigan ikkinchi manba hisoblanadi.

UMUMIY XULOSALAR.

Boshlang'ich sinf darslarini tashkil etishda pedagogik hamkorlikning mazmunida ta'lim jarayonini tubdan isloh qilish, uning asosiy shakli bo'lgan dars tizimini tashkil etishda pedagogik hamkorlikni turi va uning o'ziga xos xususiyatlarini nazariy jihatdan tahlil etib va amaliy tajribalarga tayangan holda quydagi xulosalarga keladi.

1. Boshlang'ich sinflarda ta'limni tashkil etishning bir necha shakllari, dars turlaridan foydalanish mumkin bo'lib, ularning har biri o'z xususiyatlariga ega. Ulardan o'qtuvchi maqsadli foydalanishi zarur bo'ladi.
2. Darslarni tashkil etishda pedagogik hamkorlikning turi bo'shlang'ich sinflarda alohida ahamiyatga ega bo'lib, uning o'z maqsadi va vazifalari bor. Boshqa dars turlari singari umumlashturuvchi darslarga ham bir qator talablar qo'yiladi.
3. Boshlang'ich sinf darslarini ta'shkil etishda pedagogik hamkorlikning mazmuni, o'quvchilarning tayorlanishlari uchun vaqt berilishi, oldingi materiallar yuzasidan savollar berib qo'yilishi, foydalanish lozim bo'lgan adabiyotlarning ro'yxati berilgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir.
4. O'qtuvchi shuni alohida hisobga olishi kerakki, darslarni tashkil etishda pedagogik hamkorlikning turida o'quv materiallarining chegaralari aniq belgilab olinadi, asosan g'oya tushuncha, qoida unga mos mashq topshiriqlar ajratib olinadi.
5. Dars samaradorligini amalgam oshirishda o'quv materiallarini qaytarish jarayonida nafaqat ta'limiy balki, tarbiyaviy jihatdan ham alohida e'tibor qaratilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. A. Karimov "Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent. "O'zbekiston" 2009.
2. I. A. Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch". Toshkent. "Ma'naviyat" 2009.
3. I. A. Karimov "Asosiy vazifamiz vatanimizni taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirish". Toshkent. "O'zbekiston" 2010.
4. "Barkamol avlod yili" davlat dasturi. Toshkent. "O'zbekiston" 2010.
5. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.
6. "Prezidentga mahtublar". Toshkent. "Ma'naviyat" 2009.
7. Zaripov K. "Yangi pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish bosqichlari" Xalq ta'limi 1997. 4-son.
8. Inomova M. "Ta'limga yangicha yondashuv". Boshlang'ich ta'lim 2000. 5-son. 10-12 bet.
9. Yo'ldashev Z. . "Yangi pedagogik texnologiyalarni" Boshlang'ich ta'lim 1999. 6-son. 26 bet.
10. Levemberg L.Sh. va va boshq. "Boshlang'ich matematika o'qitish metodikasi" T."O'qtuvchi" 1986
11. Mavlonova R. Pedagogika T.2001
12. Munavvarov A.K. Pedagogika T.1996

13. Munavvarov A.K. "Oila pedagogikasi" T.1994
14. Tursunov I., Nishonaliyev U. Pedagogika kursi T.1997
15. Umarova M. 3 sinf o'qish kitobi
16. Farberman L.B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar.
17. Qosimova K. "Boshlang'ich ona tili o'qitish metodikasi" T."O'qituvchi" 1985
18. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. T.1992
19. Yo'ldashev Z. Usmonov A. Pedagogik texnologiya asoslari. T."O'qituvchi" 2004

Internet materialllari

1. WWW. Amazon . com.
2. WWW. Iet. Mesi.ru.
3. WWW. Adpima.com
4. WWW. Iet. Mesi. ru
5. WWW. Ip. Kpol aaa net.ru

MUNDARIJA

Kirish_____

I bob. Boshlang'ich sinf darslarini tashkil etishda pedagogik hamkorlikning ilmiy-nazariy asoslari.

1.1 Boshlang'ich sinf darslarini tashkil etishda pedagogik hamkorlikning mazmunini_____

1.2. Boshlang'ich sinf darslarini tashkil etishda pedagogik hamkorlikning tuzilishi_____

II bob. Boshlang'ich sinf darslarini tashkil etishda pedagogik hamkorlikning shart-sharoitlari

2.1. Darslarini tashkil etishda pedagogik hamkorlikning mazmunini_____

2.2. Tajriba sinob ishlaridan namunalar_____

Xulosalar_____

Foydalanilgan adabiyotlar

ro'yxati_____